

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

MILLIY QADRIYAT FALSAFASI

Uzoq Jo‘raqulov,
filol.f.d., ToshDO‘TAU professori
(O‘zbekiston)
joraquovuzoq@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston qahramoni, XX asr milliy she‘riyatimizning buyuk namoyandasi A.Orifning “Oila” she‘ri idilliyaviy lirika nazariyasiga ko‘ra tahlil etilib, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *Sujet, psxologizm, obraz, detal, badiiy tasvir, muallif pozitsiyasi, idilliya, idilliyaviylik, idilliyaviy lirika, idilliyaviy iztirob, idilliyaviy xavotir, idilliyaviy munosabat, idilliyaviy xronotop.*

Voqelikni idillik idroklash va talqin etish, bashariyatning ilk badiiy tajribalaridan. Nazariy adabiyotshunoslikda idilliyaning poeziya janri sifatida vujudga kelishi, badiiy kanonlari yozma adabiyotdagi namunalariga nisbatan belgilangan bo‘lsa ham, tub mohiyatiga ko‘ra, uning mansha‘-ibtidosi xalq ijodiyotining arxaik davridan boshlanadi. Adabiy tur va janrlar nuqtayi nazaridan faqat lirikada emas, eng qadimgi folklor janrlarining epik va dramatik, liro-epik, liro-dramatik shakllarida ham idilliyaviy talqinlar ko‘zga tashlanadi. Keng ma‘nodagi idilliyaviy talqin spetsifikasi epik, lirik, dramatik tur yoki janrlardan istalgan bittasi o‘z poetik imkoniyatlari doirasida tabiiy va aniq bir voqeani ifodalashga qaratilganida namoyon bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, idilliyaviy talqin odamzotning tabiiy turmush tarzi, oilaviy hayot yo‘lidagi tajribalari, quvonch-iztiroblari, fikr-qarashlari, odam va olam haqidagi xulosalarining badiiy umumlashmasidir. Bundan kelib chiqadiki, terminologik lug‘atlarda qayd etilib, nazariy va o‘quv adabiyotlarda izchil takrorlanib kelayotgan “kichik obraz, kichik she‘riy asar” degan ta‘rif idilliyaning yagona xususiyati emas.

O‘zbek folklori va yozma adabiyoti tarixida idillik talqin an‘analari XX asrga qadar izchil davom etgan. Ulkan manbaviy qamrovga ega ushbu masalani o‘rganishning o‘zi alohida mavzu. XX asr o‘zbek she‘riyatida idillik talqin oila, xususiy turmush tarzi, dehqonchilik, kasb-hunar, ajdodlar makoni, ota yo‘li, ota nasihati, ona rizoligi, maishiy turmush tashvishlari, tug‘ilish, o‘lim, yegulik, ichikilik, “oila dasturxon” tarzidagi milliy falsafaning lirik talqini o‘laroq aks etgan.

Bu jihat Cho‘lpon, Oybeklar lirikasida, epizodik tarzda bo‘lsa ham, sof milliy asosda talqin etildi. G‘.G‘ulom, Mirtemirlar ijodining xalqona ruhi milliy idilliyaaning ba‘zi qirralarini poetik aks ettirgani kuzatildi. So‘ngroq bu an‘ana A.Orif, O.Matjon, E.Vohidov, R.Parfilar she‘riyatida yaqqolroq ifodalandi. Ayniqsa,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

A.Orifning idillik talqindagi she‘rlari xalqona falsafa, oddiy odamlarning sodda turmush tarzini lirik aks ettirishi jihatidan o‘ziga xosdir.

A.Orif she‘riyatida idilliyaviy ruhdagi she‘rlar kam emas. Hatto bir yoki bir nechta ilmiy tadqiqot doirasida ham shoir idilliyaviy lirikasi va unga xos umumbashariy, milliy, maishiy, individual xossalarni to‘la qamrab olish mumkin emas. Shu bois A.Orif idilliyaviy she‘riyati maxsus monografik tadqiqotlarni talab etadiki, shu va boshqa sabablarga ko‘ra bu o‘rinda shoirning bitta she‘ri tahlili bilan cheklanamiz. Zotan, nur rishtasi quyoshdan, tomchi ummondan, tovush jarangi badiiyatdan darak berganidek, bir she‘r misolida ham shoirga xos idillik lirika ta‘mi va falsafasini tuyish imkoni yo‘q emas.

Ushbu she‘r hajman kichik, mazmuniga ko‘ra kundalik turmushimizga doir jo‘ngina voqeani bayon etganiga qaramasdan, idillik mazmuni va falsafasi, original ifoda yo‘cini, lirik psixologizmga boyligi bilan umumilliy, umuminsoniy mohiyat kasb etadi. Xalqonalik, milliylik esa idilliyaviy lirikaning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Ushbu she‘r “Oila” deb nomlangan:

*Kattasi ketgandi baliq oviga,
Cho‘milib-netmasin ishqilib.
Turli tasavvurlar olar doviga,
Kampirning nafasi kelar tiqilib.
- Hoy, siz ham bolani o‘ylangda
bundoq...
Kampir erk bergancha puch xayoliga,
Kapgirni qaygadir ilib o‘sha choq
Tanbeh bera boshlar choliga.
Cholchi, ko‘zoynagin artgancha bot-bot
Kitob varaqlaydi: Bedilmi,
Mashrab...
Moshinda ketiuvdi kenjasi
shaddod,
Yursinda, ishqilib, ko‘ziga qarab...
Kun ham erta botdi, bilmadim,
kuzmi,
Bittasi kechkida o‘qiydi.
- Sen ham o‘ylaginda anavi qizni!
Chol ham kampirini nuqiydi.
Hech qayda hech gap yo‘q shundoq*

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ikkovlon

Bir-birin besabab koyir, turtkilar.

Lekin ikkisi ham biladi pinhon:

Bolalarni o‘ylaydi ular.

So‘ngra bir mahalda uzun-qisqa

bo‘lib

Bolalar ham kelar galma-gal.

Dasturxon atrofi boradi to‘lib,

Xayriyat, hammasi jam, tugal.

Kampir: Shukur,- deydi qimtinib

labi,

Chol ham jilmayadi:

Tushunar...

Dunyoda hech bir gap bo‘lmagan kabi.

Bolalar ovqatni tushirar¹.

Ko‘pchilik idilliya yoki idilliyaviylik termini ostida jo‘ngina qishloq turmushi, sokin hayot tarzi va bularning sodda tasvirini tushunadi. Idilliyaga nisbatan bunday qarash zamirida olamni industriyasiz tasavvur qila olmaslik, ijtimoiy nuqtayi nazarning gegemonligi, ayniqsa, sobiq sovetlar mafkurasining sotsial umumlashtirish prinsiplari turadi. Idilliya esa ayni qarashlarga zid ravishda bashariyatga xos ilk odam, ilk oila, inson ko‘ngli, individual va maishiy hissiyotni talqin etadi. Undagi soddalik ostida teranlik, oddiylik ostida buyuklik, milliy mazmun ostida ulug‘vor falsafa turadi. A.Orifning idilliyaviy talqinga molik barcha she‘rlari, xususan, “Oila” she‘ri mohiyatini ham shunday badiiy-falsafiy o‘ziga xosliklar tashkil etadi.

Mazkur she‘rni idilliyaviy lirika nuqtayi nazaridan quyidagi mazmun-shakl kategoriyalari negizida tahlil etish mumkin:

a) *idilliyaviy syujet.* She‘r syujeti nihoyatda sodda. Unda muayyan oila hayotida ro‘y bergan odatdagi bir voqea lirik tasvir etilgan. Ayni voqea istalgan o‘zbek oilasi (hatto boshqa millatlarga mansub oilalarda ham)da ro‘y berishi mumkin. Shuning uchun ushbu she‘rda aks ettirilgan voqeani idillik syujet qolipi tarzida qabul qilsak ham bo‘ladi. Ya‘ni ota-ona, o‘g‘il va qizlardan tarkib topgan bir oila. Bolalarning barchasi, hatto kenja o‘g‘il ham (mashinada chiqib ketgani e‘tiboridan) o‘z yo‘lini topib ketgan. Katta o‘g‘il biror ko‘l yoki daryo bo‘yiga dam olgani (baliq oviga) yo‘l olgan. Qiz farzand qaysidir oliy o‘quv yurtining kechki bo‘limida tahsil oladi. U o‘qishda. She‘r syujetidagi barcha lirik holatlar tasviri chol va kampir – ota-ona bilan

¹ Oripov A. Saylanma. – T.: Sharq, 1996.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

bog‘liq. Ular ertalabdan ko‘chaga chiqib ketgan bolalari haqida o‘ylaydilar, muhokama yuritadilar, xavotirga tushadilar. Bir-birlarini “nuqiydi”lar. Kun tugab, kechki ovqat mahali bolalarning barchasi uyga qaytadi. Chol-kampir dasturxon atrofida to‘rtko‘z tugal jamlangan bolalarini ko‘rib xotirjam tortadilar. Yaratganga shukrona keltiradilar. Ammo ularda kun bo‘yi kechgan xavotir hissi, o‘zaro munozaralardan bolalar bexabar. Chol-kampir buni o‘z bolalariga bildirishni ham istashmaydi. O‘z shukronalarini esa faqat ishora bilan bayon etishadi. She‘r syujeti shu bilan yakunlanadi.

Ko‘rinadiki, tasvirlanayotgan voqea dam olish kunida ro‘y berayotgani yo‘q. Shu jihati bilan ham ayni syujet idilliyaviy turmush kundaligida alohidalik kasb etmaydi. Uning odatiyligi, muntazam takrorlanib turishi, har qanday oila uchun xarakterli ekani mazkur syujetni sof idilliyaviy poydevorga qurilgani deyishimiz uchun to‘la asos beradi;

b) *idilliyaviy obrazlar tizimi.* Mazkur she‘r syujetida ishtirok etayotgan barcha obrazlar idilliyaviy ibtidoaga ega. Ota-ona, o‘g‘il-qiz – bu, mukammal darajadagi oila degani. She‘rdagi obrazlarning tizimliliigi shundaki, Odam ato va momo Havvo oilasidan bugunga qadar mukammal oila tarkibini shu to‘rt tip tashkil etadi. “Oila” she‘ridagi bolalar obrazi nihoyatda passiv. Bunday passivlik farzandlar obrazi bilan bevosita aloqador emas. Chunki lirik syujet voqeligi umumoila yashaydigan xonadon ichidan turib tasvirlanyapti. Tasvir diapozonining bu tarzda mutlaqlashtirilishi shoir badiiy niyati bilan bog‘liq. Ayni paytda bolalar ham o‘z makonlarida – katta o‘g‘il ovda, kenjasi yo‘lda, qiz farzand esa o‘qishda – faol bo‘lishlari mumkin. Ammo shoir badiiy maqsadi uchun bunday faollik muhim rol o‘ynamaydi. U mazkur idilliyaviy voqelik vositasida umumman oilani, xususan, ota-ona psixologiyasini lirik asoslashni ko‘zda tutgan. Shuning uchun ham she‘r syujet tizimida ota-ona obrazlarigina faol harakatlanadi. Ayni harakatlar she‘r botinida o‘y-xayol, mulohaza-muhokama, bahs-munozara tarzida ifodalanadi. Shuni alohida takidlash o‘rinliki, bu qadar faol bo‘lishlariga qaramasdan asardagi na ota, na ona obrazi individual asosga ega emas. Ularning har ikkalasi rasmiy, umumlashgan, tipiklashgan obrazlardir. Tipiklashgani bois ham ularni umummilliy yokiumumbashariy ota-ona obrazi deyishimiz mumkin. “Oila” she‘ridagi ota-ona obrazi uchun hatto makon-zamon muayyanligi ham xos emas. Chunki bunday holat Odam ato va momo Havvolar bilan ham ro‘y bergan bo‘lishi mumkin (Rivoyatlarda kelishicha, o‘z o‘g‘illarini ovga jo‘natgan Odam ato ham ular ovdan qaytgunlaricha xavotirga tushar ekanlar);

v) *idilliyaviy xavotir.* “Oila” she‘rining jon tomirini tutib turgan, unga tiriklik, joziba, liriklik, inja badiiyat va yumorga yo‘g‘rilgan fojiviylik ruhini bag‘ishlab turgan liro-psixologik komponent ham aslida idilliyaviy xavotir sanaladi. Bunday

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

idilliyaviy xavotir tasviri ota-ona obrazining ulkanlashuvi, tipiklashuvi, teranlashuvini ta’minlashi bilan birga, botin drammatizmi, ichki dialog, psixologik holatlar uyg’unligi va ma’rifiyligini ham ta’minlagan. Doimiy takrorlanib turuvchi oddiy bir kun. Hamma farzandlar odatdagi mashg’uloti bilan band. Bu o’rinda favqulodda yoki novellaviy biror hodisa yo‘q. Bolalar orasida ishkal chiqarishi mumkin bo‘lgan, ota-onani yo‘rig‘ini buzadigani borligi ham ehtimoldan yiroq. Kenja o‘g‘ilning “shaddod”ligi esa tabiiy, o‘z yo‘lida (barcha kenjalar singari). Shunga qaramasdan, chol-kampirning ko‘ngli xotirjam emas. Xayollari chuvalgan, yegani ichiga tushmaydi...

Xo‘sh, unda bu xavotirning boisi nima?

Bu shunday bir noyob xavotirki, uning hech qanday sababi yo‘q. Ayni paytda, biror mantiqqa bo‘yinsunmaydigan, tushuntirish, tushunish qiyin bo‘lgan, yengish, qutulish mumkin bo‘lmagan abadiy xavotir bu. Bu xavotir Odam ato va momo Havvodan meros umuminsoniy xavotir. Uning ostida ota-onaning farzandga bo‘lgan botiniy va hech qachon tunganmas mehri yashiringan. Ayni shunday ulkan ko‘lami, murakkabligi, hech qanday psixologik talqinga bo‘y bermasligi bilan ham u insonga xos, azaliy va abadiy, ya’ni idilliyaviy xavotirning mukammal lirik namunasidir;

g) *idilliyaviy munosabat*. She’rda aks etgan idilliyaviy munosabatning ham ildizlari chuqur, hatto xavotir kategoriyasi bilan salkam tengdosh botiniy kategoriya. Abdulla Orif buni kichkina idilliyaviy detal vositasida mukammal ifodalay olgan:

Kampir: Shukur,- deydi qimtinib

labi,

Chol ham jilmayadi:

Tushunar...

Dunyoda hech bir gap bo‘lmagan kabi.

Bolalar ovqatni tushirar (ta’kid bizniki – U.J.).

Chol-kampir uchun “uzun-qisqa bo‘lib” bolalarning uyga qaytishi, dasturxon atrofida jamlanishi yuksak bir saodat. Ular bunday saodatga yetishuv uchun har kuni, har soat, har daqiqa iztirob chekishadi. Kun oxirida esa barcha iztiroblar unutiladi. Shu nuqtadan idillik vaqtni tongla yana qayta boshlanadigan iztirob lahzalariga yetkazish uchun saodat onlari harakatga tushadi. Jarayon Qiyomat qadar to‘xtamaydi. Ota-ona vafotidan so‘ng farzandlarga, so‘ng nevara, evara, chevara, duvara, kabiralarga meros bo‘lib o‘tadi. Bunday fidoyilik – idilliyaviy xavotirga yo‘g‘rilgan pokiza tuyg‘uga munosabat ham sira o‘zgarmasdan davom etadi: beparvolik, e’tiborsizlik. Bunday beparvolik, e’tiborsizlik uchun bolalar aybdor emas. Ota-ona buni yaxshi bilishadi. Bilishgani bois ham dasturxon atrofida shukrona saodatini tuygan onlarini ishora ostiga yashirishadi. Yashirish asnosida marhum ota-onalarini

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

eslashadi, tushunishadi. O‘z xayollarida: “Onaning ko‘ngli bolada, bolaning ko‘ngli dalada” deb qo‘yishadi. Zotan, bola ko‘nglining dalada bo‘lishi ham bir qonuniyat, idillik munosabatni tashkil etuvchi o‘zgarmas kategoriyaning ayni o‘zidir (Momolar ta’biricha, “Odam ato ham otam-onam emas, bolam”, degan ekanlar. Chunki u Zot alayhissalomning ota-onalari bo‘lmagan ekan.).

d) *idilliyaviy xronotop*. “Oila” she’ri xronotopi haqida ham keng mushohada yuritish, atroflicha tahlillar berish mumkin. Tadqiqot shakli, xarakteri va hajm imkoniyatlarini e’tiboda tutib, bu o‘rinda idilliyaviy xrontopning M.Baxtin qayd etgan bir-ikki belgilarini “Oila” she’riga munosabatini qayd etish bilan cheklanamiz.

M.Baxtin idilliyaviy xronotopning uch muhim belgisini alohida ta’kidlaydi: tserkulyativ zamon, turg‘un (o‘zgarmas) makon va takrorlanuvchi tashriflar². “Oila” she’ri syujeti chol-kampir xonadonida ro‘y berishini yuqorida ta’kidlab o‘tdik. Bu aynan idilliyaviy makonga xos turg‘un makon. Bu makonda idilliyaviy voqealar abadiy davom etadi. Bolalar ko‘chaga yo‘l oladilar, chol-kampir (ota-ona) esa ularni uyda kutadi. Ketish-kutish bu makondagi nisbiy harakatni ta’minlaydi. Idilliyaviy makon ichidagi o‘zgarishlarni ifodalaydi. Ammo ota hovlisi (yoki ota uyi, xonadoni) esa o‘zgarmaydi. Voqealar takrorlanib tutuvchi turg‘un makonligicha qolaveradi. Bu she’rdagi zamon kategoriyasi ham xuddi shunday. Yonlamasiga (gorizontal) yoki yuqoriga (vertikal) qarab haraktlanmaydi, balki tserkulyativ trayektoriya bo‘ylab aylanib turadi. Hatto bobolar, otalarning o‘limi ham zamonning bunday harakatini o‘zgartira olmaydi. Avlodlar hayoti negizida takrorlanishda davom etaveradi. Tarorlanuvchi tashriflar kutishdan keyingi qaytish, bir dasturxon atrofida jamlanishda namoyon bo‘ladi. Ota-ona kutgani kabi bolalar ham uydan chiqib ketadilar, qaytib keladilar. Bu jarayon uzluksiz va o‘zgarmas. Ketish muddati ma’lum vaqtga cho‘zilishi, ota makondan uzoqlashuvning ro‘y berishi ham ushbu azaliy qonuniyatga putur yetkaza olmaydi. Toki yer yuzida yagona oila qolar ekan, takrorlanaveradi.

Ye) *idilliyaviy xulosa*. She’rning umummilliy, umumbashariy ko‘lami, darajasi va ahamiyati undagi idilliyaviy xulosada o‘z aksini topgan. Bu xulosa Yaratgan nizomining buyukligi, abadiyligi, bashariyatga oila bo‘lib yashashni ixtiyor etganini eslatish, ta’kidlash, targ‘ib etishda namoyon bo‘ladi. Mana shunday buyuk nizom asosida yashab kelayotgan oila fenomenining mukammal bir namunasida shakllangan shoir hech qanday sun‘iy zo‘riqishlarsiz, tabiiy ravishda “Oila” she’rini o‘z o‘quvchilariga taqdim etadiki, bu muhim jihat she’r abadiyati va badiiyatini ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa:

² **Qarang:** Baxtin M. *Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar. Rus tilidan U.Jo‘raqulov tarjimasi.* – T.: Akademnashr, 2015.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

1. Jahon badiiy tafakkuri aynan idilliyaviy poetik talqin vositasida oila, tabiat, insonlar aro munosabatlarning asl ildizlariga tomon intiladi.

2. Idilliyaviy asar markazida asl o‘zligi, milliyligi, sof tabiatni izlayotgan, ajdodlar an’anasini saqlash yo‘lida iztirob chekayotgan odamparvar obrazi turadi.

3. Sof idilliyaviy talqinni namoyon etuvchi oila, ota-ona, tug‘ishganlar, muhabbat, tug‘ilish, o‘lim, mehnat, yeyish-ichishga oid tasvirlar, shular negizida keladigan qishloq, shahar, qadrdon uy, tog‘, dala, yaylov, dengiz, daryo, anhor, ariq singari badiiy makonlar faqatgina idilliyaviy tafakkur, idilliyaviy falsafa, idilliyaviy xulosa bilangina estetik mazmun-mohiyat kasb etadi.

4. Milliy adabiyotlarda idillik asarlarning mavjudligi ayni millat vakillarining asliyatdan yiroqlashmaganidan dalolat beradi. Shoir A.Orifning “Oila” she’ri esa o‘zbek xalqi milliy o‘zligini mukammal darajada saqlab kelayotganini ko‘rsatuvchi, qadriyatlarimiz o‘q tomiri bo‘lgan odamiylik falsafasining badiiy ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur’oni karim. O‘zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur.-T.: Cho‘lpon, 1992.
2. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar. Rus tilidan U.Jo‘raqulov tarjimasi. – T.: Akadernashr, 2015.
3. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015.
4. Meli S. So‘z-u So‘z. – T.: O‘zbekiston, 2020.
5. Oripov A. Saylanma. – T.: Sharq, 1996.
6. Rasulova, U. Y. (2021). The pride of the nation. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1685-1688.
7. Rasulova, U. (2020). Novelties in poetics of tales. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 220-224.
8. Rasulova, U. (2021). Devotees of knowledge. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1270-1274.